



TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

SHOG'DAROV NAVRO'ZBEK ODILOVICH

Termiz Davlat Universiteti Talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625711>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 08th June 2022

KEY WORDS

texnologiya, innovatsiya, dastur, metod, individual, instruktiv, pedagogik, hunar.

ABSTRACT

Maqolada maktab o'quvchilarini texnologiya fani mashg'ulotlarida faolligini oshirishda Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quv ishini to'g'ri tashkil qilish ko'zda tutilgan

Ta'lim islohotlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta'lim muassasalariga qo'yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda. Bunday sharoitlarda ta'lim muassasasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar salmog'i uzluksiz ortib boradi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun o'y-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish

bo'yicha boshlangan ishlarimizni yangi yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bug'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", deb alohida ta'kidlaganlar. Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuvni, o'quvchilarning bu fandan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo'yimoqda.

Bugungi kunga kelib, o'quv axborotlari hajmining haddan tashqari ko'payib ketganligi o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni "o'qish va o'rganishga o'rgatish"ni talab qilmoqda. Jadallik bilan o'zgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatish va yashash o'quvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni o'zlashtirishni, balki turfa ko'rinishdagi ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy



vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shuningdek, oxirgi paytlarda maktabda texnologiya fani bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi nisbatan past bo'lib kelmoqda. Bu qaysidir ma'noda texnologiya fani mazmunining bir muncha nazariy, ilmiy, mantiqiy va amaliy tuzilishga ega ekanligi, texnologiya fani mazmunining hayotiy masalalarga kamroq bog'langan holda o'qitilishi hamda texnologiya fanini o'qitish metodikasining takomillashmagani bilan ham izohlash mumkin. Shulardan kelib chiqib, texnologiya fanini o'qitishga ham zamonaviy talablar qo'yilmoqda va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quv ishini to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarning davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv materiallarini tizimli o'rganish va puxta o'zlashtirishi hamda milliy yaratuvchanlik g'oyalariga asoslangan jamiyatimizning ongli quruvchilarini tarbiyalashga sharoit yaratadi. Texnologiya fani darslarida o'quvchilarning o'quv va ishlab chiqarish faoliyati turli tashkiliy shakllarda kechadi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida tashkiliy shakl deganda o'quv ishlab chiqarish faoliyati uchun o'quvchilar kichik guruhlarini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o'quv mashg'ulotlarining texnologik tuzilishi tushuniladi. Texnologiya fani mashg'ulotlari jarayoni ta'limning turli shakllar bilan ta'minlanadi.

Ta'limning asosiy shakli dars hisoblanadi. Bu texnologiya fanidagi o'quv ishini tashkil etishning nazariy va ishlab chiqarish ta'limidagi asosiy shaklidir.

Texnologiya fani darsi o'quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda yagona

didaktik vazifaning bajarilishini ta'minlaydigan tashkiliy shaklidir.

Texnologiya fanining u yoki bu shaklini tanlashda o'quvchilarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy omillarining u yoki bu shakliga bog'liq. O'quvchilar faoliyati va ta'limoti jarayonini, shuningdek amaliy tayyorgarlikning metodlari va didaktik vositalarini to'g'ri tanlash quyidagilarni ta'minlaydi:

- buyumlar tayyorlashdagi texnologik jarayonlarning oqilona ko'rinishini tanlashni asoslash uchun nazariy bilimlardan maqsadga muvofiq foydalanish yoki ishlarni bajarish izchilligi;

- o'quvchilarga pedagog tomonidan texnologik jarayonning alohida amaliy usullarini bajarishni, u yoki bu yo'nalish uchun harakterli bo'lgan nazorat- o'lchov asboblari va moslamalarini qo'llash yo'llarini, shuningdek zamonaviy ishlab chiqarish mutuxassislari tajribasini har tomonlama namoyish qilish, kasblarni o'quv dasturlari va rejalariga muvofiq ravishda tizimli va izchillik bilan o'rganish;

- o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limiga tezroq qo'shilishi;

- o'quv ishining turli tashkiliy shakllarida o'quvchilarning pedagog tomonidan berilgan uy vazifalarini mustaqil holda bajarishlari muhimdir.

Nazariy ta'linda o'quv ma'ruzalari, tushuntirish, seminarlar, laboratoriya mashg'ulotlari, praktikumlardan foydalaniladi. Ishlab chiqarish ta'limida esa muayyan sharoitlarda o'quv ishining kichik guruh ta'limiga yaqin bo'lgan shakli qo'llaniladi. Texnologiya fani o'qituvchisi o'quv ishini tashkil etishda ko'rsatilgan



shakllarning har biridan foydalanishi, zarur bo'lganda ularni uyg'unlashtirishi (o'zaro moslashtirishi yoki birga qo'shib olib borishi) mumkin. Bunda o'quv dasturlarining bajarilishi o'quvchilarni ishlab chiqarishdagi mustaqil ishga tayyorgarligini oshirishni, ular tomonidan yangi texnika, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etishni o'rganishini ta'minlaydi.

Mashq qilish darslaridan amaliy mashg'ulot jarayonida foydalaniladi. Bu yerda yetakchi element - o'quvchilar tomonidan mashqlarni ishlab chiqarish jarayonida qayta bajarish hisoblanadi. O'quv-ishlab chiqarish, buyumlarni mustaqil tayyorlash darslari ishlab chiqarish ta'limining asosiy sharti sifatida o'tiladi. Bunda o'quv ishlarini mustaqil bajarish yakka (individual), guruh va yoppasiga (frontal) bo'lishi mumkin. Bir xil ish quroli va ayni bir asbobni qo'llab, bir xil ishni umumguruh bajarayotganda pedagog guruhga faqat umumiy rahbarlik qilishi bilan har bir o'quvchiga yordam beradi

Aralash dars deb, barcha aytib o'tilgan dars xillariga xos bo'lgan elementlar qo'llaniladigan darsga aytiladi har bir darsning bosh vazifasi va maqsadi o'quvchilar tomonidan dastur materialini

ommaviy (frontal) hamda rejali ravishda o'zlashtirilishidir.

Instruktiv darslar, garchand instruktaj har bir dars hajmining zaruriy elementi sanalsada, kam uchraydi. Instruktiv darslardan ekspluatiatsiya qilish harakteridagi kasblar bo'yicha ta'lim berishda foydalaniladi. Bunday hollarda, darslarda apparat va mexanizmlar namoyish qilinadi, ularning tuzilishi, alohida qism hamda uzellarining o'zaro harakati tushuntiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilar bilimni davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq rejali ravishda egallaydilar. O'quvchilarga o'quv amaliyotxonalarida ta'lim berishning hususiyati shundaki, u o'quvchilar tomonidan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni izchil hamda ongli o'zlashtirish tamoyillariga rioya qilingan holda o'tkaziladi. Barcha mehnat harakatlari, usullari, amaliy ketma-ketliklari o'sib boradigan ishlarning murakkabligi va aniqligi tartibida o'rganiladi. O'quv amaliyotxonalarida o'quvchilar muayyan mehnat amaliyotiga kiruvchi alohida usul va harakatlarni egallaydilar, amaliyotni butunligicha, hususiyatlari bilan o'zlashtirib, uni juda oqilona va mahsuldor bajarishni o'rganadilar.

References:

1. Sh.Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016 yil 8 dekabr. 243-son.
2. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. -T.: 2019.
3. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. -T.: "TerDU nashr-matbaa markazi", 2020.
4. Muslimov N.A. va b. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi va kasb tanlashga yo'llash: Darslik T., 2014.
5. Pedagogik atamalar ro'yxati. // Tuz. R.X.Djuraev va b. T.: Fan, 2008.



6. Sharipov Sh. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. -T.: Fan, 2005. -
7. IV. Elektron ta'lim resurslari
8. 11. [www. Ziyonet. uz.](http://www.Ziyonet.uz)
9. 12. [www. edu. uz.](http://www. edu. uz)